

O'SMIR YOSHLARDA MILLIY ONG RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Маматкулова Дилрабо Йулдашевна

*Katta o'qituvchi, Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali*

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy ong va uning rivojlanishin anglash tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, mustaqillik yillarida xalqimizning milliy o'zlikni anglash yo'lida olib borilgan fidokorona xizmatlari, shuningdek, tarixiy xotirani va diniy qadriyatlarni tiklash milliy tiklanishining, o'smir yosh davlarida diniy ong rivojlanishining psixologik-pedagogik xususiyatlari, shuningdek oila va ta'lim maskanlari ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar. diniy ong, oila, ta'lim-tarbiya, globallashuv, o'smirlilik, milliy ong, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, milliy iftixon.

Hayot haqiqati shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha bilim va tajribalar, so'z, tushuncha, tasavvur hamda xulosalar bevosita yo bilvosita inson faoliyati bilan boqliq holda vujudga keladi, rivojlanadi, boyib, takomillashib boradi yoxud aksincha – eskirib, umrini o'tab, zavolga yuz tutadi. Ayni paytda shunday bir buyuk hodisa borki, u toki odamzodning ongli hayoti mayjud ekan, hech qachon zavol bilmaydi. Shuning uchun ham uni o'ta noyob – fenomenal hodisa deb ataymiz. Bu – sog'lom fikrlaydigan, ezgu orzu-umidlar bilan yashaydigan inson va jamiyat tomonidan hamma zamonlarda ham qadrlanib kelgan ma'naviyat hodisasiadir. Darhaqiqat, bashariyat o'z aqlini taniganidan, ruh va vujudning farqini, hayot ma'nosini, ezgulikning mohiyatini anglaganidan buyon ma'naviyat unga doimiy hamroh bo'lib kelmoqda. Bamisolli buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiyning qahramoni Farhod afsonaviy ko'zguga qarab, o'z taqdirini oldindan ko'ra olganidek, inson ham ma'naviyat orqali tarixni, bugungi kuni va kelajagini tasavvur qilish, baholash hamda shu tariqa zarur saboq va xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, bugungi kunda ma'naviyatni bashariyat hayotida beqiyos o'rin tutadigan, zamonning talab va mezonlariga qarab yangi-yangi imkoniyatlari ochilib boradigan noyob hodisa, yaxlit bir tizim sifatida tasavvur qilish ehtiyoji yanada ortib borayotgani ham beziz emas, albatta. Bu jihatdan, ma'naviyat deganda, insonni – inson, millatni – millat qiladigan, ularning qadr-qimmati va o'zligini belgilaydigan, asrlar davomida bir butun tizim sifatida shakllanib, rivojlanib kelgan hodisa tushuniladi.

Hozirgi kunda butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv har bir soha va yo'nalishga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Yurtimizning ma'naviy hayoti va uning o'ziga xos tomonlari muttasil rivojlanmoqda. Jumladan, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy, ijtimoiy

va diniy-ma'rifiy sohalarda rivojlanishni kuzatishimiz mumkin. Globallashuv jarayoni jamiyatimizning ko'p qismini tashkil qiluvchi yoshlar hayotiga ham kirib bormoqda. Bu jarayon ba'zi o'smirlar xulq-atvorida ijobiy, ba'zilarida salbiy namoyon bo'layotganini ko'rmoqdamiz.

Globallashuv sharoitida diniy masalalarda ham transformatsiyalash jarayoni kuchaymoqda. Hozirgi kundagi turli buzg'unchi g'oyalarga asoslangan diniy ekstremistik tashkilotlar diniy tushunchalarni noto'g'ri talqin qilishi natijasida mutaassib guruhlarko'payib ketmoqda. Shu sababli yoshlarda diniy ong darajasini rivojlantirishni davr taqazo etadi. Prezidentimiz Mirziyoyev Sh. "Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar qancha-qanchaoilalar, mamalakatlar boshiga og'ir kulfatlar olib kelmoqda; g'arazli kuchlar hali ongu tafakkuri to'la shakllanib ulgurmagan bolalarni o'z ota-onasi, Vataniga qarshi qo'yib, ularning hayotiga zomin bo'lmoqda. Shuning uchun biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada xushyorlik va ogoqlikni yanada oshirib, shu borada jaholatga qarshi ma'rifat asosida ish olib borishimiz zarur," –deb ta'kidlaganlar.

Milliy ong ijtimoiy faoliyat jarayonida shakllantiriladi, milliy ong ham o'z navbatida unga bevosita ta'sir o'tkazib, uni belgilaydi va tartibga solidi. Millat, o'z orzu-maqсадларини ro'yobga chiqarish jarayonida tabiatni, jamiyatni bva o'zini o'zgartiradi. Sobiq tuzum davrida milliy ong g'ayriilmiy siyosat tufayli cheklangan edi. Millatlarning ongini, ruhini mustahkamlash va ravnaq toptirish g'oyasini ishlab chiqqan shaxslar millatchi sifatida qoralangan. Mustaqillik davrida milliy ong ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy merosga va qadriyatlarimizga tayanib, milliy g'urur va iftixorni barchaning qalbiga singdirish omiliga aulandi. Milliy ong milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida muayyan axloqiy, huquqiy, ilmiy, mafkuraviy qadriyatlarga asoslangan e'tiqoddir. Milliy ong mazmun-mohiyati millatning o'z-o'zini anglash darajasi bilan belgilanadi. Boshqa millatlarning tarixi, madaniyati, milliy xususiyatlari va manfaatlariga xolisona baho bera olishi uchun millat, avvalambor, o'z-o'zini anglamog'I, tarixi, kelajagi, manfaatlarini chuqr tushunib yetmog'I lozim. Milliy ongning bu xususiyati mustaqillik sharoitida yoshlarni tarbiyalashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy ong- milliy birlik va birdamlik tuyg'usi shakllanishing asosidir.

Jamiyatimizning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mushtahkamlash, jamiyatimizda yuksak ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oila va ta'lim maskanlari o'rni va ahamiyatini oshirishni taqazo etadi. Yoshlarimiz ongida diniylikni biz ta'lim-tarbiya orqali shakllantirishimiz mumkin. Diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan diniy tasavvurlar, tizimlar obyektiv va subyektiv omillar asosida shakllanadi.

Diniy ong in'ikos etgan ijtimoiy hodisalar majmuyi ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayon ifodasidir. Uning mazmunini real voqelikdagi, ijtimoiy hayotdagi narsa va hodisalarni tabiatdan, jamiyatdan tashqarida mavjud deb hisoblaydigan ularni o'ziga xos tarzda aks ettiradigan ma'naviy e'tiqod va amallar tashkil etadi. Ishlab chiqarishning intensivlashishi, urbanizatsiyaning kuchayishi, ya'ni yirik shaharlarning vujudga kelishi va u bilan bog'liq asablarning toliqishi, taranglashishi, ekologik buzilishlar, turli xavf-xatarlarning kuchayishi kabi ijtimoiy faktorlar o'smirlarda umidsizlik, ojizlik, qo'rquv, ertangi kunga ishonmaslik, yolg'izlanish kabi kayfiyatlarni tug'diradi. Yoki boshqa turli yo'llar tanlanishini kuzatish mumkin. Masalan, alkogolizm, narkomaniya, suitsid (*o'z joniga qasd qilish*) kabi hodisalar rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan.

Shuningdek, yolg'izlanish, jamiyatdan begonalashish, depersonalizatsiya (*o'z fikr-mulohazalariga ega bo'lmaslik*), boshqalar taqdiriga befarqlik, hamdardlikning yo'qolishi, xudbinlik kabi ruhiy buzilishiga yaqin holatlarni vujudga keltira boshlaydi. G'arbdagi bir qator dinshunoslik va din psixologiyasi bilan shug'ullanuvchi olimlar bunday salbiy holatlardan din yordamida chiqish mumkin deb ko'rsatishyapti. Bunday salbiy illatlardan yoshlarni diniy e'tiqod orqali saqlash va diniy ongni rivojlantirish vositasida uzoqlashtirish mumkin.

Ilmiy ishimizda tadqiqot obyekti qilib o'smirlik davri olindi. O'smirlikdavri 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas».

O'smirlik –balalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Shu sababli o'smirlik davri "o'tish davri", "inqiroz davr", "qiyin davr" kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi.

O'smirlar davrida diniy ong rivojlanishi juda muhim va qiziqarli jarayon hisoblanadi. Bu yoshda shaxsning dunyoqarashi, axloqiy qoidalarga bo'lgan

munosabati va ruhiyholati shakllanadi. O'smirlar ko'pincha o'z hayotlariga ta'sir etuvchi turli qadriyatlar, an'analar va e'tiqodlarni o'rganadilar.

1.Qiziqish: O'smirlar diniy masalalarga ko'proq qiziqish bildirishi mumkin. Ular o'z oilasida, do'stлari orasida yoki mакtabda o'rganilgan diniy e'tiqodlar haqida savollar beradilar.

2.Identitet: Diniy ong rivojlanishi o'smirlarning shaxsiy identitetlarini shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ular o'z diniy e'tiqodlarini aniqlashga harakat qilishadi va bu jarayonda ota-onalari yoki diniy jamoatlarning ta'siri katta bo'lishi mumkin.

3.Axloqiy qadriyatlar: Diniy ta'lilotlar ko'pincha axloqiy qadriyatlarni belgilaydi. O'smirlar bu qadriyatlarni o'z hayotlariga qo'llashni boshlaydilar, bu esa ularning qaror qabul qilishiga va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir qiladi.

4.Shubhalar: O'smirlilik davrida shubhalar paydo bo'lishi tabiiy holatdir. Ba'zi o'smirlar diniy e'tiqodlarini so'rashadi yoki tanqid qilishlari mumkin, bu esa ularning fikrini yanada kengaytirishga yordam beradi.

5.Ijtimoiy ta'sir: O'smirlarda diniy ong rivojlanishiga ijtimoiy muhit ham katta ta'sir ko'rsatadi. Do'stlik, mакtabdagи muhit va internet orqali olinadigan ma'lumotlar ularning fikrlash usulini shakllantiradi.

Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidankattalarga yaqin bo'lgan o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo'ladi va ular o'smirda inqirozni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu inqiroz o'smirning ma'naviy o'sishi, shuningdek psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqeyi o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stлari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi.

O'smirlar haddan tashqari g'ayratli va besaramjon bo'ladilar, ular uchun bekorchilik juda og'irdir, bir xil tarzdagi ishlardan tezda toliqadilar, bir xildagi ish bilan qiziqmay qo'yadilar, bu esa ularning ta'lim jarayonlari muvaffaqiyatiga kuchli ta'sir qiladi.

O'smirlarning diniy ongini rivojlantirishda o'qitish ya'ni ta'lim jarayonining ahamiyati katta. Globallashuv sharoitidabiz yoshlarni S.L.Rubinshtyen ta'kidlagandek: "Biz ta'lim orqali tarbiyalaymiz, tarbiyalash orqali ta'lim beramiz." Oiladashakllantirilgan diniy ong asosan odob-axloq me'yorlari doirasidarojvjantiriladi. Bolani halollikka, poklikka, xushxulqlikkao'rgatib borish jarayonidatarbiyadiniy e'tiqod bilan uyg'un tarzdasingdiriladi. Behudaisrof qilmaslik, uy-joyini tozatutish, shaxsiy gigiyenasigae'tiborini qaratish, yomon odatlarni tark etishgaundash jarayonidabularning bari diniy e'tiqodgabog'lab tushuntiriladi, izohlanadi. Ta'lim muassasalarida oiladashakllantirilgan diniy tushunchalar vae'tiqod ilmiy asoslardatakomillashtiriladi. Diniy vadunyoviy qadriyatlar uyg'unligidatarbiyajarayoni tashkil qilinadi.

Ta`lim va tarbiya tamoyillaridan onglilik va ixtiyorilik o`quvchilarning bilimlarini ongli ehtiyoj sifatida o`zlashtirishlarini, nazariy bilimlarini amalda qo`llash ko`nikma va malakalarini shakllantirishni ko`zda tutadi. Tarbiyaning ixtiyorilik tamoyili esa tarbiyaviy ta`sirlarni pedagogik jarayonda ixtiyoriy qabul qilishni anglatadi. Pedagogik jarayonda o`quvchi talabalar bilimlarni ongli ravishda o`zları uchun zarur ehtiyoj sifatida o`zlashtirsalar, bu jarayon samara keltiradi. Yaxlit pedagogik jarayonda ta`lim oluvchi va tarbiyalanuvchilar o`qituvchi pedagog bilan hamkorlikda faoliyat yuritadilar. Ta`lim va tarbiya maqsadlariga birqalikdagi, hamkorlikdagi faoliyatatlari orqali yetib boradilar. O`quvchi talabaning ongi yosh xususiyatlariga mutanosib rivojlangan bo`lsa, ta`lim va tarbiya natijasida u bilim oladi, tarbiyalanadi hamda rivojlanadi. Binobarin, ta`lim jarayoni ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko`zda tutadi. O`z faoliyatiga ongli yondashuv natijasida o`quvchi bilimlarni o`zlash-tiradi, ma`naviy-axloqiy sifatlarini takomillashtiradi, shaxs sifatida shakllanib boradi. Ayni damda o`z burchi va vazifalariga mas`uliyat bilan yondoshishda uning onglilikdarajasi namoyon bo`ladi. O`smirlardadiniy bilimlarni ta`lim tizimidagi darsliklar orqali mavzulargabog`lagan tarzda Qur`oni karim oyatlari sharhi, Hadisi shariflardan, sahobalarning ibratli hayoti diniy ulamolarning hikmatlari so`zlarini keltirib o`tish ham ongdadiniy bilimlarni rivojlantirishgata`sir qiladi.

Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta`sirlarning barchasi bilan bog`liq holdashaxs diniy ong rivojlanishigata`sir etadi. Bundaqulay omillardan foydalilaniladi, salbiy ta`sirlarning kuchini ma`lum darajadakamaytiradi. Muhitning ta`siri stixiyali, tarbiyaning ta`siri esamaqsadgamuvofiq olib boriladi.

Tarbiya jarayonida quyidagi holatlar vujudga keladi:

1.Tarbiya jarayonida kishi ongingin o`sishi sodir bo`ladi. Bu jarayonda pedagogik-psixologik ta`sir ko`rsatiladi. Masalan, bolao`z dinini atrofini o`rab turgan muhitning ta`sirida o`rganib olishi mumkin. Lekin diniy manbalarni o`qish vayozishni ta`lim olish yo`li bilan o`rganadi. Ma`lum bilim ko`nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.

2.Tarbiya yordamida kishining tug`ma kamchiliklarini ham kerakli tomonga o`zgartirish mumkin. Chunonchi, ba`zi bir bolalar ayrim kamchilik bilan tug`iladi (*kar, ko`r, soqov vah.k.*). Lekin maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida ularning aqliy qobiliyatlari taraqqiy qiladi, tug`makamchiligi bo`lgan kishilar bilan barobar faoliyatda bo`lishi mumkin.

3.Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta`siri natijasidayuz bergen kamchiliklarni ham tugatish mumkin (*bolalarning karta, qimor o`ynashi, chekishi, ichish vanarkotik moddalarga o`rganish kabilalar vah.k.*).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir insonning ongliligi uning mafkuraviy himoya vositasi sanaladi. Bundan tashqari ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma`naviy hayot, milliy va demokratik taraqqiyotning uyg`unligi millat, mamlakatning yuksalib, dunyoga yuz tutish jarayoni yosh avlodning ma`naviy qiyofasi, tafakkur tarzi, diniy va umuminsoniy qadriyatlarini o`zlashtirishdagi ko`nikma va malakalariga chambarchars bog`liq. Shuningdek, hozirda din va ongi insoniyat tafakkuri rivojining ikki ajralmas qismi sifatida o`rganish, ta`lim-tarbiya jarayonlarida kishilik jamiyati qadriyatları tizimida alohida o`rin va maqomga egaligini inobatga olish lozim. Diniy ong rivojlanishi har bir inson uchun individual jarayon bo'lib, har bir o'smirning tajribasi va his-tuyg'ulari farqlidir. Bu jarayonni qo'llab-quvvatlash va tushunish uchun ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning roli juda muhimdir.

REFERENCES:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” -Toshkent; O‘zbekiston. 2018.-512 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2 T., -T.: «O‘zbekiston», 1996.
3. Din falsafasi: o‘quv qo‘llanma/ A.Ochidiyev (va boshqa.). –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2015. -172 b.
4. Din psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma/ B.Valiyev [va boshq]. –Toshkent: Mavarounnahr, 2014. -312 b.
5. “Umumiy pedagogika” (O‘quv uslubiy qo‘llanmasi) T.:TIU.-20175.Zufarova M.E. Umumiy psixologiya –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.-304 b.
6. Suyarov, A. (2023). Innovatsion Usullar–Talabalarning Ta’lim Va Kognitiv Faoliyatini Tashkil Ettirishning Yangi Tarzi. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).
7. Nigmanova U.B. Globallashuv sharoitida milliy-madaniy meros va qadriyatlarni saqlash zaruriyati. Mug‘allim ham uzlusiz bilimlendiru 2023y.
8. Milliy yuksalish strategiyasi fanidan o‘quv-uslubiy majmua Toshkent-2023. U.B.Nigmanova, A.M.Rasulova.
- 9.Nazim, B. (2024). THE USE OF FACT-CHECKING INSTRUMENTS IN ENHANCING MEDIA LITERACY. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(2), 440-444.
- 10.Nazim, B. (2024). ENHANCING INFORMATION SECURITY THROUGH IMPROVED MEDIA LITERACY MODULES. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 235-239.

- 11.Ziyodullayeva, K., & Bo'ronov, N. (2024). FAKE NEWS AND THEIR ROLE IN PROPAGANDA MATERIALS. Развитие и инновации в науке, 3(8), 55-57.
- 12.Бўронов, Н. (2022). МЕДИАТАЪЛИМ ФЕЙК МАЪЛУМОТЛАРГА ҚАРШИ ҚАРШИ МЕДИСАВОДХОНЛИКНИ ОШИРУВЧИ ВОСИТА СИФАТИДА. RESEARCH AND EDUCATION, 1(6), 241-250.
- 13.Khumora, Z., & Nazim, B. R. THE ROLE OF THE INTERNET IN THE SPREAD OF FAKE INFORMATION.
- 14.Rajabova, S. A., & Normurodova, Q. T. (2024). OROL BO'YI XUDUDLARINING SHO'RLANGAN VA QURG'OQCHIL TUPROQLARINI QAYTA TIKLASHDA BIOPREPARATLARDAN FOYDALANISH. TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR, 1(1), 114-116.
- 15.Назирова, З. Р. (2021). ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОПТИМИЗАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ ВЕТЕРИНАРНОГО ВУЗА НА ОСНОВЕ ИКТ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 629-633.
- 16.Абдулазизова, С. М., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. YANGI O 'ZBEKİSTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 94-96.
- 17.Мадрахимова, З. Ф. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(1), 94-97.
- 18.Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 166-171.